

**ALIFBOGA ISLOHOT KIRITISH BO'YICHA TAKLIFLAR VA
QARSHILIKLAR HAQIDA**

Saydamatov I.N

*Ilmiy rahbar: O'zbekiston Davlat Jahon
tillari Universiteti*

Abdulloyeva Munisaxon

Ingliz filologiyasi fakulteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Oxirgi paytlarda alifboga o'zgartirish kiritish borasida berilgan takliflar munozarali mavzuga aylandi. Mazkur maqolada turkey davlatlar alifbosi bir xil ko'rinishdagi harflarni qabul qilishi va oqibatda yuzaga keluvchi muammolar haqida fikr yuritiladi.

Abstract: In recent times, proposals to change the alphabet have become a controversial topic. This article discusses the fact that the Turkish alphabet accepts letters of the same appearance and the problems that arise as a result.

Kalit so'zlar: o'zbek tili alifbosi, turkiy davlatlar, harfiy birikmalar, yozuv, alifbo bo'yicha islohotlar, islohot afzalliklari va kamchiliklari.

Key words: alphabet of the Uzbek language, Turkic states, letter combinations, writing, reforms in the alphabet, advantages and disadvantages of the reform.

Sir emaski, so'nggi vaqtarda lotin alifbosiga ayrim islohotlarni kiritish keng jamoatchilikning e'tiborini tortgan va ko'plab bahs-munozaralarga sabab bo'layotgan masala sifatida qaratilmoqda.

Avvalo, yozuv- muayyan bir tilda qabul qilingan va kishilar o'rtasidagi muloqotga xizmat qiladigan yozma belgilar yoki tasvirlar tizimi. Insoniyat yozuvday mukammal aloqa vositasini kashf qilgunga qadar uzoq izlangan. Dunyodagi barcha yozuvlar asrlar davomida shakllanib, o'zgarib kelgan. Jumladan, O'rta Osiyodagi xalqlar, o'zbek xalqi o'tmishda turli yozuv tizimidan foydalangan. Bu yozuvlar o'z sistemasiga ko'ra fonografik-harf-tovush yozuvidan iborat bo'lib, uning negizi oromiy yozuviga borib taqaladi. O'zbek xalqi shu davrgacha bir nechta yozuvlardan foydalangan XX asr davomida arab (1929-yilgacha), lotin (1929-1940), rus grafikasi (1940-1995), rus va lotin gtafikasi (1995-2010-yillar). O'zbek tilining lotin alifbosiga o'tishi bir yil davomida ommaviy axborot vositalarida keng jamoatchilik ishtirokida atroflicha muhokama qilinib, 1993-yil 2-sentyabrda O'zbekiston Respublikasining "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida" gi qonuni e'lon qilindi. Bunga ko'ra, alifbo 26 ta harf, 3

ta harf birikmasi va 1 ta tutuq belgisidan iborat. Yangi loyihada esa belgisidan yozuviga asoslangan 28 ta harf va 1 ta harflar birikmasidan iborat yangi o'zbek alifbosi taklif etilmoqda. Yangi alifboda o', g'; harflari, shuningdek, sh, ch qo'shharflarini quyidagicha o'zgartirish taklif etilgan:

G' g'—Ğ ğ

O' o' - Ö ö

Sh sh —Ş ş

Ch ch —Ç ç

Amaldagi alifboda **o'**, **g'** harflarini kompyuterda yozish uchun bir nechta ortiqcha amallarni bajarish lozim edi. Bunday ortiqcha amallardan qochish yoki ko'pincha **o'**, **g'** harflaridagi 'belgisini' – apostrof deb tushunilishi natijasida *O'zbekiston*, *o'zbek*, *o'lka*, *G'ayrat*, *g'alaba*, *g'olib* kabi imloviy xatolar juda ko'p takrorlanmoqda. Yana bir jihat: ona tili ta'limida agar urg'u tushgan bo'g'in tarkibida **o'**, **g'** harflari bo'lsa, bu harflardagi ' belgisi bilan urg'u belgisi yonma-yon joylashadi hamda so'zni va urg'u tushgan bo'g'inni ilg'ash qiyinlashadi. Ushbu harflarning yozma shakli esa ayni harflarning amaldagi yozma shakllari bilan yaqinligi sababli grammatik tushunmovchiliklarni yuzaga keltiradi.

Mavjud tajriba amaldagi alifbomizdagi **sh**, **ch** harfiy birikmalarini bir tovush – bir harf tamoyiliga muvofiq tuzatish zarurligini ko'rsatdi; to'g'ri, shu vaqtga qadar bu harfiy birikmalardan foydalanib keldik, ammo qo'sh harflilik muammosi "Imlo qoidalari"ga turli istisnolarni kiritdi. *Mo'tabar*, *mo'tadil*, *mo'jaz*, *mo'jiza* so'zlarining tutuq belgisi qo'yilmay yozilishi ham "Imlo qoidalari"ga kiritilgan istisnolardan biridir;

O'zbek tilidagi *Is'hoq*, *as'hob* so'zlarini *Is'hoq*, *as'hob* tarzida to'g'ri yozish uchun, albatta, **s** va **h** harflari orasiga tutuq belgisi qo'yilishi kerak bo'lib, bu ham amaldagi alifboni o'zlashtirishda, ayni alifboda to'liq ish yuritishda qiyinchilik tug'dirar edi. Bu qoidani bilmaslik oqibatida *Is'hoq*, *As'hobiddin* ismlarining *Ishoq*, *Ashobiddin* tarzida yozilishidek nodurust holatlar ko'payib bormoqda;

Amaldagi o'zbek-lotin alifbosida so'z boshida kelmaydigan "**ng**" tovushi uchun **Ng** bosh harfi ham ajratilgan edi. Biroq o'zbek tili lug'at tarkibida ayni harf bilan boshlanadigan so'zlar yo'q. Shu bois loyihada so'z ichida va so'z oxirida keladigan "**ng**" tovushi uchun kichik **ng** harfnigina alifboga kiritish zaruriyati yuzaga keldi.

Hukumat qarori bilan 2023-yil 1-yanvardan boshlab barcha tashkilotlarda ish yuritishda lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga to'liq o'tilishi belgilangan. Xo'sh, bundan ko'zlangan asosiy maqsad nimada? Qanday afzallik va kamchiliklarni yuzaga keltiradi?

Darhaqiqat, 4 ta harfni isloh qilish bilan jamiyatimizda o'z faoliyatini olib borayotgan turli soha vakillari uchun qulayliklarga sabab bo'ldi. Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, tobora shiddat bilan taraqqiy etib borayotgan axborot asrida raqamlashtirish muhim sohalardan biriga aylanib ulgurdi. Ammo lotin alifbosidagi ayrim harflar, aniqroq aytadigan bo'lsak, qo'shharflar va o', g' harflari aynan raqamlashtirish tizimida, shu bilan birga, gazeta, jurnal hamda turli saytlarda o'zbek tiliga oid kontentlarni ta'minlovchi noshirlar uchun bir qator noqulayliklar va muammolarni keltirib chiqarayotgani kundek ravshan . Qolaversa, alifboni qisman isloh qilish hayotimizning talay jabhalarida o'z o'rnini egallab ulgurgan ijtimoiy tarmoqlarda ham o'zbek tilida muammolardan holi, mukammal va sifatli kontent va materiallarni yetkazib berishda bir qancha yengilliklar yaratadi , eng asosiysi, bu orqali tilning ravnaq topishi uchun imkoniyatlar eshigini ochadi. Yoxud turkiy xalqlar alifbosini bir xil tizimga o'tkazish xalqlarning birlashuvi, dos'tlik aloqalarini mustahkamlash va adabiyot sohasida katta yutuqlarga erishish uchun yaxshi imkoniyat bo'lishi mumkin. Zero, kichik bir islohot ham butun bir davlat taraqqiyotini tubdan o'zgartira olishiga shubha yo'q.

Masalaning ikkinchi tomoniga e'tibor qaratsak, lotin alifbosiga o'zgartirish kiritish ham ma'lum o'rnlarda zararli oqibatlarga olib kelishi mumkin. Jumladan, ko'p vaqtidan beri amaldagi alifboga asoslangan bir qancha kitoblardan, darsliklardan foydalanib, ko'plab ma'lumotlarni " iste'mol qilib" kelmoqdamiz. Shu boisdan, alifboga bir qator islohotlar kiritish aholining turli qatlamlari orasida savodsizlikni va ayrim o'rnlarda harflar masalasida chalkashliklarni keltirib chiqarishi ehtimoldan holi emas, albatta. Biroq bundanda jiddiyroq masala bu alifboni isloh qilish orqali yuzaga keluvchi ko'p miqdordagi ortiqcha xarajatlardir. Faktlarga qaraganda, joriy yilning o'zida umumta'lim maktablari o'quvchilari uchun umumiylis hisobda 59.9 million nusxa darsliklar chop etilishi rejalashtirilgan va bunga 1.150 trillion so'm mablag' sarf etilgan. Bundan tashqari , butun boshli badiiy asarlar , ilmiy tadqiqot va hujjatlar qayta nashr etilishi uzoq vaqt, katta mablag' talab etadi. Yuqoridaqilarni inobatga olib, tilshunos Baxtiyor Mengliyev lotin alifbosidagi islohotlarga qarshi chiqdi: " Xatoni tuzatish xatodan qimmatga tushmasligi kerak".

Mening fikrimcha, alifbodagi o'zgarishlar til va ijtimoiy hayotga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qoldirmaydi. Hattoki yozuvi o'zgartirilgan tilda muloqot qilish qiyinlashishi mumkin. Bu munozaralingistik o'zgarish haqidagi fikrlar davom etar ekan, ushu bahsli masala bo'yicha qaror qabul qilishdan oldin barcha istiqbollarni ko'rib chiqish va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan oqibatlarni diqqat bilan ko'rib chiqish juda muhim. Ayrim o'rnlardagi ziyonlari tufayli ushbu islohotning davlatimiz uchun muhim hisoblangan til ravnaqi hamda raqamlashtirish sohasiga keltiradigan qator foydali jihatlariga ko'z yumish

to'g'ri bo'lmaydi. Shuningdek , yurtimiz va ona tilimiz uchun xarajat , albatta , sarflanishi kerakligini yodimizdan chiqarmasligimiz darkor. Zero, ta'lim sohasiga tikilgan sarmoya vaqt kelib o'z mevasini beradi.

Xulosa:

O'zbek tili alifbosiga kiritilayotgan islohotlar millatning kelajagi uchun muhim ahamiyatga ega. Takliflar va qarshiliklar o'tasidagi muvozanatni topish, jamiyatda keng muhokama qilish va barcha qatlamlarning fikrini inobatga olish zarur. Faqat shunday qilib, alifbo islohotlari muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mumkin va o'zbek tili yanada rivojlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nurov, A. "O'zbek alifbosini isloh qilish zarurati" // O'zbekiston tilshunosligi jurnali, 2020.
2. Asqarov, M. "O'zbek alifbosi va boshqa tillar: o'xshashliklar va farqlar" // Til va adabiyot tadqiqotlari, 2019.
3. Turon TV, "Alifbo islohotiga oid muhokamalar" (yangiliklar dasturlari).
4. Daryo.uz